

“TASDIQLAYMAN”

Gidrometeorologiya xizmati agentligi
direktori



____ **Sh.Khabibullayev**

**O‘zgidromet tarkibiy boshqarmalari va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda
hududiy gidrometeorologiya markazlari boshliqlari ishtirokidagi tezkor
kengash yig‘ilishining 2-son**

B A Y O N I

2025-yil 9-aprel

Toshkent shahri

Raislik qildi: Sh.Khabibullayev – O‘zgidromet direktori.

Qatnashdilar: Hududiy gidrometeorologiya markazlari boshliqlari,
markaziy apparatning boshqarma, bo‘lim boshliqlari va
mas’ul xodimlari, *(ro‘yxat bo‘yicha)*,

KUN TARTIBI:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qaror hamda farmonlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda O‘zgidromet buyruq va farmoyishlari ijrosi yuzasida;**
- 2. O‘zgidrometning 2025-yil uchun ixtisoslashtirilgan gidrometerologik xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va ularning holati;**
- 3. 2025-yilgi toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib olishni tashkil etish masalalari;**
- 4. Boshqa ishlab chiqarish masalalari.**

(Sh.Khabibullayev... Sh.Khabibullayev)

So‘nggi yillarda gidrometeorologiya sohasini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini gidrometeorologik ma‘lumotlar bilan ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaroriga muvofiq Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududini to‘liq qamrab olish, tog‘ va tog‘oldi hududlarda xavfli gidrometeorologik hodisalarni **(momaqalldiroq, do‘l, kuchli yomg‘irlar)** prognozlash va sodir bo‘lishi xavfi yuqori bo‘lgan zonalarini aniqlash maqsadida Termiz tumanida yangi meteorologik radiolokator tarmog‘i tashkil etildi.

Ammo, Respublikaning **9 ta** hududi (Andijon, Farg‘ona, Namangan, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) 2025-yil davomida bir necha marotaba taqdim etib kelinayotgan ma‘lumotlar xato va

kamchiliklar borligi sababli ko‘p marotaba tushuntirish hamda ogohlantirishlar berildi.

Shu jumladan, **Qashqadaryo** va **Jizzax** viloyati gidrometeorologiya markazi boshliqlari tomonidan **2025 yilda** sel suv mavsumi davomida bir necha marotaba viloyat hududida kuzatilgan sel-suv toshqinlari bo‘yicha axborotni yetkazishda sustkashlikka (axborotni o‘z vaqtida taqdim etmaslik, mobil aloqa vositalariga javob bermaslik va xk.) yo‘l qo‘yganligi aniqlangan.

2025 yil 5 oy davomida respublika bo‘ylab **23 ta** sel va suv toshqinlari ro‘yxatga olindi.

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. Jizzax viloyati gidrometeorologiya markazi boshlig‘i **Б.Халбеков** tomonidan **2025 yilda** sel suv mavsumi davomida bir necha marotaba viloyat xududida kuzatilgan sel-suv toshqinlari bo‘yicha axborotni yetkazishda sustkashlikka yo‘l qo‘ygani uchun “Hayfsan” intizomi jazo chorasi berilsin.

2. Surxondaryo viloyati gidrometeorologiya markazi boshlig‘i **R.Pardayev** ogohlantirishga qaramay hamda rahbariyatga xabar bermasdan yig‘ilishda qatnashmaganligi uchun tushuntirish xati olinsin.

3. Gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof-muhit sifati monitoringi boshqarmasi **A.Mavliyanov** Viloyat xududida kuzatilgan sel-suv toshqinlari bo‘yicha axborotni rahbariyatga yetkazishda alohida shakl ishlab chiqish vazifasi yuklansin. Ma’lumotlarni taqdim etish shakl ishlab chiqishda birinchi navbatda sel qayerga kelganligi, dastlab sel qaysi hududni qamrab olishi, yoqotishlar bor yoki yo‘qligi va qaysi davlat tashkilotlari ishtirokida vaziyat kuzatib borilganligi ko‘rsatilishiga alohida e’tibor bersin.

4. Gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof-muhit sifati monitoringi boshqarmasi **A.Mavliyanov** va Gidrometeorologik ta’minot boshqarmasi **(A.Narzullayev)** **birgalikda** Kuchli shamol va qumli bo‘rinlar haqida tezkor gidrometeorologik axborotlar berishda soddalikka etibor berish va holatga ko‘ra ranglar bilan ajratish tizimini ishlab chiqish vazifasi yuklansin.

5. Belgilangan topshiriqlar ijrosini **bir kun muddatda** amalga oshirilish belgilansin.

6. Ushbu yig‘ilish qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.